

ALISHER NAVOIY IJODIDA ADOLAT TALQINI

Botir Oqbutayev

TerDU o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10563464>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiyning adolat haqidagi qarashlari tahlilga tortilgan. Islom ta'limotiga asoslangan Alisher Navoiy dunyoqarashicha, xususiy mulk muqaddas va daxlsiz, har bir kishi o'zining halol mehnati evaziga istaganicha mol-mulk, boylik orttirishi mumkinligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: adolat, Alisher Navoiy, haqiqat, zardushtiylik.

INTERPRETATION OF JUSTICE IN THE WORK OF ALISHER NAVOI

Abstract. This article analyzes Alisher Navoi's views on justice. According to Alisher Navoi's worldview, which is based on Islamic teachings, private property is sacred and inviolable, and everyone can acquire as much property and wealth as they want due to their honest work.

Key words: justice, Alisher Navoi, truth, Zoroastrianism.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ СПРАВЕДЛИВОСТИ В ТВОРЧЕСТВЕ АЛИШЕРА НАВОИ

Аннотация. В данной статье анализируются взгляды Алишера Навои на правосудие. Согласно мировоззрению Алишера Навои, основанному на учении ислама, частная собственность священна и неприкосновенна, и каждый своим честным трудом может приобрести столько собственности и богатства, сколько пожелает.

Ключевые слова: справедливость, Алишер Навои, истина, зороастризм.

Alisher Navoiy nazarida ham xususiy mulk muqaddas, har bir kishi o'z imkoniyati va iqtidori ,mehnatiga yarasha boylik orttirishi, mulkka egalik qilishi mumkin , faqat u halollik, peshona teri bilan topilsa bas. Alisher Navoiyning Mazdakiylar harakatiga munosabati haqida shuni aytish mumkinki, Mazdakning o'z zamonida hukmron bo'lgan zardushtiylik, so'ngra vujudga kelgan Islom dini e'tiqodiga ham mos kelmaydigan mulk va xotinlar umumiyliigi haqida qarashlari, o'z o'zidan ayonki, Alisher Navoiyning Islom dini asosida shakllangan dunyoqarashiga to'g'ri kelmas edi. Buni shoirning Mazdak haqidagi quyidagi fikrlari ham isbotlaydi, Va Mazdaki lain Qubod zamonida paydo bo'lib , nubuvvat da'vosi oshkor qildi va elni bir birining moli va ayolig'a shariklikka ruxsat berdi. Bu jihattin avbosh va arzol yig'ilib, g'avg'o qildilar Mazdak qochib Ozorbayjonga bordi.... Nushiravonul odil binni Qubod haqida . Va Buzurjmehr aning vaziri edi.

Aning mashvarati bilan Mazdakka istimolotlar berib, ilikka kiyurdi . Va xususiyatlar zohir qilib, atboin mulozim qildi va hujjat bila aning dini botil erkanni anga sobit qildi va ani va jami' atboin tiriklay chohlarga sarnigun ko'mdurdi. Va o'zin o'z ilki bila o'lturdi va olam yuzin oning nopok loshidin pok qildi. Va aytsa bo'lurki, barcha adolati bir sori erdi va bu bir sori erdi.¹” Alisher Navoiyning Mazdak haqida bunday tasavvurda bo'lishiga sabab uning, avvalo, musulmon kishisi , shoir va mutaffakkir hamda davlat arbobi sifatidagi e'tiqodi, dunyoqarashi, Islom ta'limoti asosida shakllanganligidir. Chunki, islom ta'limotiga asoslangan Alisher Navoiy dunyoqarashicha, xususiy mulk muqaddas va daxlsiz, har bir kishi o'zining halol mehnati evaziga

¹ Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami.16-tom.”Tarixi Muluku Ajam”. T.: 2000. “Fan”, B. 242-243.

istaganicha mol-mulk, boyluk orttirishi mumkin. Shuningdek, jamiyatda shoh va raiyat (fuqaro), boy va kambag'allarning bo'lishi Ollohning amridir. Negaki, har bir kishi Olloh ato etgan iqtidor, salohiyat va imkoniyatga yarasha mehnat qiladi va boyluk orttiradi. Ya'ni, hayotda kimdir mehnatsevar, tirishqoq, ishbilarmon yana kimdir esa erinchoq, landovur, ishyoqmas va tekinxo'r.

Shunday ekan, mehnatsevar kishining kecha-yu kunduz halol mehnat qilib topgan boyligini o'zining ishyoqmasligi bois nochor ahvolga tushgan kishilarga bo'lib berish va bu bilan tenglik, adolat o'rnatish mumkin deyish to'g'ri va odilona fikr emas. Islom ta'limotida bu haromxo'rlik va gunoh sanaladi. Shoir jamiyatda tabaqalarning mavjud bo'lishini rad etmagan, ularning birini maqtab, ikkinchisini qoralab, ular o'rtasida o'zaro ziddiyat keltirib chiqarishga urinmagan holda, har bir tabaqa vakilining yaxshi va yomon xislatlarini ko'rsatib beradi. Shoir jamiyatdagi barcha tabaqa vakillariga to'g'rilik, haqiqat va xolislik bilan munosabat bildiradi va har bir tabaqaning yaxshi va yomon kishilardan iborat ekanligini, buni esa Ollohdan deb bilish zarurligini hamda ularning yaxshiligiga munosib muruvvat ko'rsatilishini, yomonligiga yarasha jazolanishini jamiyatning adolatli qonuni deb biladi:

Yamon-yaxshini tengridin anglag'il,
Yamonni yamon, yaxshini yaxshi bil.
Yamonni agar yaxshi qilsang gumon,
Erur yaxshini ham degandek yamon².

Sinchkov shoir nazaridan odil podshohlar, dehqonlar bilan bir qatorda, zolim, johil, fosiq podshohlar, bezori va razillar, g'arib va bechoralar, shilqim va gadoylar hamda riyokor shayxlar ham chetda qolmagan.

Xullas, ko'pgina sharq mutafakkirlari, davlat arboblari singari Alisher Navoiy ham mamlakat obodonligi, el-yurt osoyishtaligining boisi ma'naviy barkamol podshohning odil siyosati deb bilar ekan, do'sti Husayn Boyqaro va uning o'g'li shahzoda Badiuzzamoni, shuningdek barcha hukmdorlarni ezgu xislatlarini egallashga chaqiradi. Negaki, shoir nazdida, podshoh daryo bo'lsa, unga tobe kishilar anhorlardir. Daryo qanday bo'lsa, anhorlar ham shunday, ya'ni daryo suvi tiniq, chuchuk bo'lsa anhor suvi ham tiniq va chuchuk. Agar daryo suvi loyqa va achchiq bo'lsa, anhor suvi ham loyqa va achchiq bo'ladi. Shunday ekan, podshoh ma'naviy barkamol, xuddi tasavvuf ta'limotida komil insonlar sifatida talqin etiluvchi darveshlarga xos axloq sohibi bo'lishi kerak.

Bir necha ming yillar davomida insoniyat yaratgan va yaratayotgan dunyo tamaddunida har bir millat va xalqning hamda unga mansub buyuk ijodkorlarning munosib ulushi bor. Millatimizning daho farzandi, ulug' shoir va mutafakkir hamda yirik davlat arbobi Alisher Navoiy adabiy merosi — doimo aziz va mukarram, ijodi — tunganmas xazina, g'oyalari — hamisha barhayot.

Shuningdek, mutafakkir Alisher Navoiy ijodida ifodalangan g'oyalar umumbashariy, umumjahoniy mohiyat kasb etadi, inson taqdiri, inson ko'ngli haqida mushohada qiladi, bashariyatni ma'naviy kamolotga undaydi.

Alisher Navoiy adolat mavzusida alohida asar yozmagan bo'lsa-da, uning butun ijodiy merosida bu g'oya juda muhim ahamiyat kasb etib, turli tarzlarda o'z ifodasini topgan.

² Navoiy A. "Mahbub ul-qulub". -T.: 1998. "Fan". B.102.

Ayniqsa, “Hayrat ul-abror”, “Saddi Iskandariy” va “Mahbub ul qulub” asarlarining bosh g’oyasi adolat ekanligini alohida ta’kidlash joiz.

Adolat — qadim-qadimdan insoniyat uchun olamdagi eng asosiy, eng dolzarb masala hisoblangan.

Insoniyat yaralganidan buyon adolat g’oyasini xoh Sharqda, xoh G’arbda bo’lsin o’zining faravon turmush haqidagi azaliy orzu-umidlari, istaklari ifodasi va ayni paytda o’zi yashayotgan zamonning eng dolzarb masalasi sifatida ulug’lagan va e’zozlagan.

Ularning adolat haqidagi orzu-intilishlari, qarashlari xalq og’zaki ijodi namunalari — afsona, hajviya, ertaklar, maqol va matallar, qo’shiq va dostonlarda hamda yozma adabiyotda davr tafakkuri darajasiga ko’ra o’z badiiy ifodasini topgan.

O’z navbatida Alisher Navoiy ham folklor va yozma adabiyot, Sharqning ilg’or tafakkur dunyosi, hikmati, Qur’oni Karim va Hadisi sharif haqiqatlari hamda tasavvufiy g’oyalar ta’sirida ulg’aydi, butun umri davomida ularga amal qildi.

Navoiy adolatni qator insoniy xislatlar — sadoqat, vafo, hayo, hilm, saxovat, kechirimlilik, zukkolik, qat’iyatlilik, samimiylik bilan bog’lab tushuntiradi, zero, shoir fikricha, insonda adolat tuyg’usi bo’lmasa unda boshqa fazilatlar ham bo’lmaydi.

Adolatni mamlakat osoyishtaligi va xalq faravonligining boisi deb bilgan shoir nazarida, avvalo, shoh o’z yurtini boshqarishda odil bo’lmog’i lozim.

Ulug’ shoir va mutafakkir hamda yirik davlat arbobi sifatida ulug’ amir lavozimida faoliyat yuritgan Navoiyning odil shohlar faoliyatiga bog’liq holda talqin etilgan adolat haqidagi tasavvurlari o’quvchi ko’z o’ngida adolat tushunchasining aniq va ravshan ta’rifini gavdalantiradi:

Yaxshi-yomonga chu teng o’ldi karam,
Bo’ldi yomong’a ko’p-u yaxshiga kam.
Bo’lsa kerak fikr ila shohi zamon
Yaxshiga yaxshi-yu yamong’a yamon.

Ko’rinadiki, “Hayrat ul-abror” dostonidagi 20-maqolatda Navoiy tomonidan adolat tushunchasiga aniq va batafsil ta’rif berilgan, unga ko’ra, adolat yaxshiga yaxshi, yomonga yomon bo’lishidir, yaxshiga ham yomonga ham yaxshilik qilish — zolimlar va nokaslar boshini silash va yaxshi kishilarga zulm qilish bilan barobar.

Shu o’rinda ta’kidlash joizki, Alisher Navoiy nazdida adolat insof, to’g’rilik, tenglik faqat jamiyatdagi hukmron tabaqaga emas, balki, barcha kishilarga ham tegishlidir.

Mutafakkir shoir “Mahbub-ul qulub” asarida jamiyatda tabaqalarning mavjudligini rad etmagan, ularning birini maqtab, ikkinchisini qoralab, ular o’rtasida o’zaro ziddiyat keltirib chiqarishga urinmagan holda, har bir tabaqa vakilining yaxshi-yomon hislatlarini ko’rsatib beradi:

Yamon-yaxshini tengridin anglag’il,
Yamonn yamon yaxshini yaxshi bil.
Yamonn agar yaxshi qilsang gumon
Erur yaxshini ham degandek yamon.

Navoiy jamiyatdagi barcha tabaqa vakillariga to’g’rilik, haqiqat va xolislik bilan munosabat bildiradi va har bir tabaqaning yaxshi-yomon kishilardan iborat ekanligiga, buni esa Allohdan deb bilish zarurligini hamda ularning yaxshiligiga munosib muruvvat ko’rsatishini, yomonligiga yarasha jazolanishini — adolat, deb biladi.

REFERENCES

1. Navoiy A. Mukammal asarlar tōplami.16-tom.”Tarixi Muluku Ajam”. T.: 2000. “Fan”, B. 242-243.
2. Navoiy A. “Mahbub ul-qulub”. -T.: 1998. “Fan”. B.102.
3. Komilov N. Xizr chashmasi. – T.: “Ma'naviyat”, 2005. – B.
4. Navoiy A. MAT. 20 tomlik. T.20. – T.: “Fan”, 2003. – B.